



CREATION OF MODERN WOMEN'S DRESSES IN ROMANTIC STYLE USING BATIK TECHNOLOGY BASED ON CREATIVE SOURCES

Khulkaliyeva Gulhayo Pulat kizi

Rakhimova Kamola Gayratovna

Termiz State University

raximovakamola96@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14059845>

ARTICLE INFO

Received: 03rd November 2024

Accepted: 08th November 2024

Online: 09th November 2024

KEYWORDS

Design, designer, nature, suit, dress, creative resource

ABSTRACT

This article provides information on creating and designing new samples of suits. When creating new dress projects, the designer chose natural phenomena such as "sea waves, dawn, changes in the sky after rain, clouds, sunset" and studied the color harmony inherent in them. can create a collection without Information is given on the use of batik technology when designing scarves, dresses and other items in a romantic style.

СОЗДАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ЖЕНСКИХ ПЛАТЬЕВ В РОМАНТИЧЕСКОМ СТИЛЕ В ТЕХНИКЕ БАТИК НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ

Хулкалиева Гулҳаё Пулат кизи

Рахимова Камола Гайратовна

Термезский государственный университет

raximovakamola96@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14059845>

ARTICLE INFO

Received: 03rd November 2024

Accepted: 08th November 2024

Online: 09th November 2024

KEYWORDS

Дизайн, дизайнер, природа, костюм, платье, творческий ресурс

ABSTRACT

В данной статье представлена информация о создании и конструировании новых образцов костюмов. Создавая новые проекты платьев, дизайнер выбирала природные явления, такие как «морские волны, рассвет, изменение неба после дождя, облака, закат» и изучала присущую им цветовую гармонию, без которой можно создать коллекцию. Дана информация об использовании технологии батика при оформлении платков, платьев и других изделий в романтическом стиле.

IJODIY MANBAA ASOSIDA BATIK TEXNOLOGIYASINI QO'LLAB ROMANTIK USLUBDAGI AYOLLAR ZAMONAVIY LIBOSLARINI YARATISH

Xulkaliyeva Gulhayo Po'lat qizi

Raximova Kamola G'ayratovna

Termiz davlart universiteti

raximovakamola96@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14059845>



ARTICLE INFO

Received: 03rd November 2024

Accepted: 08th November 2024

Online: 09th November 2024

KEYWORDS

Loyihalash, dizayner, tabiat, kostyum, libos, ijodiy manba.

ABSTRACT

Ushbu maqolada kostyumni yangi namunalarini yaratish, loyihalash haqida ma'lumot berilgan. Dizayner yangi libos loyihalarini yaratishda tabiat hodisalari bo'lgan " dengizni mavj urishi, tongning otishi, yomg'irdan so'ng osmondagi o'zgarishlar, bulutlar holati, quyoshning botishi " kabi manzaralar tanlab olishi va ularga hos bo'lgan rang garmoniyasi o'rgangan holda koleksiya yaratishi mumkin. Romantik uslubdagi sharf, liboslar va boshqa buyumlarni loyihalayotganda batik texnologiyasidan foydalanish qadida ma'lumot berilgan.

Kirish. Har bir dizayner o'zining ijodiy faoliyati uchun ko'p bilim sohalaridan ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Yuqori natijalarga erishish uchun dizayner san'at sohasi va fan yo'nalishiga taalluqli bilimlarini o'zlashtirishi zarur. San'atni har bir turida g'oyaviy ijodiy asosi kompozitsiyadir. Aniqroq aytganda, kompozitsiya orqali dizaynerni qiziqtirgan g'oyani ifodalaydi. Ijodiy manbadan foydalanishni o'rganish kostyum loyihasi kompozitsiyasini tuzishda zaruriy qonuniyatlarga amal qilish lozim, ijodiy yondashuv va tasavvur qilish qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy manba – kostyum dizayni loyihasini yaratishda birinchi g'oya qilib olingan va dizaynerni ilhomlantiradigan vosita hisoblanadi. Dizayner o'zining kostyum kolleksiyasini yaratishda ijodiy manba sifatida har qanday tabiiy hodisalar, buyumlar, muhitning turli elementlari, dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, musiqa, rangtasvir, adabiyot, balet, teatr, sirk, kino, tomosha tadbirlari, etnik mavzular, me'morchilik, muhandislik inshootlari, mashina detallari, turli mexanizmlar, maishiy buyumlar, amaliy san'at asarlari (shisha, tosh, yog'och, metall, keramika va b.), musiqa asboblari, yer fakturasi, yulduzli osmon, origami o'yini, ekologiya, tarixiy, xalq va klassik kostyumlar, eklektika usuli, parodiya usuli, stilizatsiyalash usuli va h.k. bo'lishi mumkin.[2]

Kostyumning yangi namunalarini yaratishda dizayner bir qancha tadqiqot va loyihalash jarayonini amalga oshiradi. O'z navbatida loyihalash dizaynerdan tadqiqotlar olib borish, eskizlar, maketlar va modellarni yaratish, buyumlar chizmasini va hisobini ishlash, belgilangan xususiyatlarga ega yangi kiyim namunalarini yaratish kabi vazifalarni qo'yadi. Loyihalashni boshlang'ich bosqichida loyihalashdan oldingi tadqiqotlarda buyumni funksiyalarini, buyumlar kompleksini, loyihalayotgan buyumni tashqi ko'rinishi tog'risida, o'xshash modellarni borligi bo'yicha ko'rsatgichlar taqqoslanadi. [9]

Loyihalashdan oldingi tahlil etish dizaynerga funksional (buyumdan foydalanish usullarini tadqiq etish), funksional qiymatiga oidligini (aholining har xil guruhlarini istaklar tarkibini tahlil etish), texnologiya va shaklni (buyum va uni analoglarining tarkibini tahlil etish, kompazitsion, konstruktiv va plastik yechimlarini qidirish) tahlil etish kabi imkoniyatlarni beradi. Loyihalash jarayonida eng asosiy vazifa, loyihalalanayotgan buyumning mo'ljali va funksiyasi, konstruktiv va texnologik talablarni aniqlashdir.

Har bir dizayner yuqorida berilgan talablarni o'rganib, tahlil etish bilan o'zining tanlangan ijodiy manbaa asosida yaratilgan yangi libos namunasini tavsiya eta oladi. Dizayner kostyum kolleksiyasini yaratishda ijodiy manba siatida har qanday tabiiy hodisalar, buyum muhitning

turli elementlari, dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, musiqa, rangtasvir, adabiyot, balet, teatr, sirk, kino, tomosha tadbirlari, etnik mavzular, me'morchilik, muhandislik inshootlari, musiqa asboblari, yer fakturasi, yulduzli osmon, ekologiya, umumiy qilib aytganda insonni o'rab turgan tabiat, koinot, o'z aql zakovati bilan yaratgan va foydalanadigan buyum dizayner uchun ijodiy manba bo'la oladi. Tabiat million yillar davomida durdona asarlar yaratib, bu go'zallikni insonyatga taqdim etadi. Yil fasllarining almashinishi, borliqda quyoshning chiqishi, yomg'irning yog'ishi, novdaning kurtaklaridan gulning ochilishi, bunday tabiat hodisalari ijodkor uchun o'rganib bo'linmagan doimiy jarayonlardir. Tanlangan ijodiy manbaning xususiyati, tashqi ko'rinishi, uning tarkibiy qismlari, shakli o'rganiladi. Ijodiy manbaa qog'ozda graik tasvirlash orqali dizayner tasavvur qilgan yangi libos namunasiga dastlabki ishlov berish jarayoni hisoblanadi. Tanlangan g'oya yoki ijodiy manbani kostyum tashqi siluetidava qismlarida (yeng, bel qismi, yelka, yubka) qo'llash orqali kostyumni ma'lum bir uslubga yo'naltirish mumkin. [1]

Uslub-badiiy fikrlashning eng umumiy kategoriyasi; san'atda muayyan davr yoki asarning tasviriy vositalarning g'oyaviy birligi; buyum muhitining badiiy-plastik o'xshashligi. Uslubda har bir davrni dunyoqarashlar, g'oya va qarashlari aks etadi. Ushbu liboslar to'plamini yaratishda ijodiy manbaa sifatida illyuziya janri tanlab olindi. (1-rasm)



1-rasm. "Illyuziya" tabiatdan ilhomlanish

Tabiat million yillar davomidsa durdona asarlar yaratib, o'z mahoratini doimo oshiradi. Tabiatning organik va mantiqiy bog'liqlari mujassamlashgan yangi shakllarni yaratish imkoniyatini topish, zamonaviy dizayn yangi yo'nalishining asosiy vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun ham yangi libos loyihalarini yaratishda tabiat hodisalari bo'lgan " dengizni mavj urishi, tongning otishi, yomg'irdan so'ng osmondagi o'zgarishlar, bulutlar holati, quyoshning botishi " kabi manzaralar tanlab olindi va ularga hos bo'lgan rang garmoniyasi o'rganildi. Dizayner kostyumga estetik xususiyat va o'ziga hoslik yaratish uchun, tanlangan ijodiy manba

ustida uzluksiz izlanishda bo'ladi. Ijodiy manba libosning seluitida, konstruksiyasida, dekorativ bezaklarida va matoda aks etishi mumkin. Yangi to'plam uchun ham ijodiy manba matoda qo'llanildi. Tanlab olingan osmon tasvirlarini model loyihasida qo'llash uchun "Batik" texnologiyasi qo'llanildi [1, 6].



2-rasm. Batik texnologiyasi yordamida ayollar sharfiga naqsh berish

Buning uchun tabiiy krep shifon matosi tanlab olindi. Batikning aynan "sovuqbatik" usulidan foydalandi. Bu texnologiyadan foydalanish orqali mato yuzasida rang garmoniyasini yaratishga muoffaq bo'lindi. Ranglar uyg'unlashib sharf yuiziga 3D ko'rinish beradi, gullar go'yo harakatlanayotgandek ko'rinish beradi.

Bu texnologiyada matoni bo'yash uchun "DEKOLA" rang bo'yoqlaridan foydalanildi. Mato yuzasiga bo'yoqlar "mokriy" uslubida, ya'ni to'liq mato yuzasi suv yordamida namlab olindi va tayyorlab olingan ranglar erkin uslubda yuzaga berildi. Bu qog'ozda akvarel texnikasida manzara ishlash jarayonini eslatadi. To'plamning har bir libos namunasi uchun mana shunday mato tayyorlab olindi. [1, 9]



3-rasm. Decola batik

Ijodiy manbaga asoslangan holda umumiy to'plam uchun romantik uslubi tanlab olindi, yani liboslar oqshom liboslari sifatida yaratildi. To'plam yosh ayollar uchun mo'ljallangan ustki kiyim. Modellar turg'un seluitga ega bo'lib, bu tasvirning libos yuzasida yahlit ko'rinishi uchun yordam beradi. Har bir libos namunasida, loyiha eskizi asosida dekorativ bezaklardan foydalanilgan. Bezaklar – tabiat gullarini stilizatsiya qilish asosida yaratilgan bo'lib, libosning bel, etak, yeng, yelka, orqa va yon qismlarida akrel bo'yoqlar yordamida chizilgan (4-rasm. Batik yordamida yaratilgan kolleksiya). [1]



4-rasm. Batik texnologiyasi yordamida yaratilgan kolleksiya

Xulosa: Ijodiy manbadan foydalanishda dizaynerning fikrlashi ixtisos yo'nalishga oid rivojlansa va dizayner o'zi quyidagi xususiyatlarga ega bo'lsa, loyihalash shundagina foydali natija beradi:

- masalani aniq ko'rish va ifodalash qobiliyati bo'lishi lozim;
- qisqa vaqt davomida ko'p g'oyalarni tez ishlab chiqishi lozim;
- ajoyib yechimlarni topish;



- berilgan muammoga oid juda zo'r yechimlarni tez o'ylab chiqish mahorati bo'lishi lozim.
- Loyihalanayotgan kompozitsiyani topish uchun dizaynerni ijodiy jarayonida reja mavjud bo'lishi lozim:
- g'oyani paydo bo'lishi va masalani qo'yish;
- ma'lumotni yig'ish va to'plash, ijodiy manbani tanlash;
- kuchni konsentrasiyalash, intensiv ishlash, har xil evristik va loyihalash usullaridan foydalanish; [2]

References:

1. Haydarova Mohira, Kayumova Nigora, "Ijodiy manbaa asosida romantik uslubdagi ayollar zamonaviy liboslarini yaratish" Международный научный журнал «Научный импульс» №10(100), часть 1 Мая, 2023 betlar 261-262
2. Raximova Kamola G'ayratovna Baynazarova Lobar Xamdam qizi Boltayeva Marjona Talib kizi "Ijodiy manbadan foydalanib kostyum dizayni loyihasini yaratish texnologiyasi" eurasian JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH UIF = 8.1 | SJIF = 7.899 Volume 4, Issue 6, June 2024 ISSN 2181-2020 Page 101-108 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11545303>
3. Raximova Kamola G'ayratovna Baynazarova Lobar Xamdam qizi Boltayeva Marjona Talib kizi "Bolalar kiyimlariga qo'yiladigan talablarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish" EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH UIF = 8.1 | SJIF = 7.899 Volume 4, Issue 6, June 2024 ISSN 2181-2020 Page 109-114 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11545775>
4. Урозов М.К., Тошбеков О.А., Рахимова К. Жунни қалинлигини синовдан ўтказиш усуллари. Eurasian Journal Of Academic Research. 2022. Vol 2, № 13. P. 784–788; [01.00.00, №51].
5. Raximova Kamola G'ayratovna "Issiqni saqlash xossasi yuqori bo'lgan gazlamalardan chaqaloqlar kiyimlariga qo'yiladigan talablarni tahlil qilish" EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH UIF = 8.1 | SJIF = 7.899 page 115-122 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11545839>
6. Rakhimova K.G. "Talabalarga imkoniyati cheklangan bolalar kiyimlarini tikish usullarini o'rgatish texnikasi" Eurasian journal of academic research page 142-148 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11263298>
7. M.K. Urozov, K.G. Rakhimova, M.A. Fayziyeva, A.Z. Mustanova "Creation of new assortiments of sewing items from fabrics of mixed fiber structure" page 227-231 DOI: <https://doi.org/10.55640/eijmrms-02-11-51> <https://eipublication.com/index.php/eijmrms> Volume: 02 Issue: 11 November 2022 Published Date: - 23-11-2022/
8. M.K. Urozov, K.G. Rakhimova, M.A. Fayziyeva, A.Z. Mustanova «RATIONAL USE OF FABRICS WHEN SEWING WOMEN'S OUTERWEAR IN THE NEW STRUCTURE» page 28-31 DOI: <https://doi.org/10.55640/eijmrms-02-11-08> <https://eipublication.com/index.php/eijmrms> Volume: 02 Issue: 11 November 2022 Published Date: - 09-11-2022
9. Rakhimova Kamola Gayratovna "CREATING A RANGE OF MODERN CLOTHES FOR GIRLS" American Journal Of Applied Science And Technology page 13-18 Volume 04 Issue 07-2024
10. <https://www.theusajournals.com/index.php/ajast/article/view/3340>
11. Тошбеков О.А., Урозов М.Қ. Исследование параметров строения жаккардовых тканей // Илмий ва инновация фаолиятни ривожлантириш бўйича давлат бошқаруви



тизими такомиллаштириш - давр талаби. IV - Халқаро конференция. 18-декабр 2020. 114-119 б.

12. Toshbekov, O., Urazov, M., Ermatov, S., & Khamraeva, M. 2023). Efficient and economical energy use technology in the processing of domestic coarse wool fiber. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 461, p. 01068). EDP Sciences.

<https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0-85182755916&origin=resultslist>

13. Тошбеков О., & Мустонова З. Олинган нотўқима матонинг ишқаланишга чидамлилигини ва шовқинни ютишга юқори мослашувчанлик хоссаларини аниқлаш. Евразийский журнал академических исследований, 3(12 Part 2), 2023.217-221. <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/25279>

14. Kurbanov A., Shomirzaev M., Tursunov S., Toshbekov O., Mukhamadieva N., Kambarov B., Mannobova S. Analysis of the state of cultivation and harvesting of mung bean and agro-biological requirements for threshing and separating its grain. In *BIO Web of Conferences* (2024). (Vol. 105, p. 02010). EDP Sciences.

<https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0-85192513268&origin=resultslist>

15. Тошбеков О., & Мустонова З. Олинган нотўқима матонинг ишқаланишга чидамлилигини ва шовқинни ютишга юқори мослашувчанлик хоссаларини аниқлаш. Евразийский журнал академических исследований, 3(12 Part 2), 2023.217-221.

16. Тошбеков О., Рахимқулова С. Дағал жун толалари асосида олинган (автомобил, авиятсия, кемасозлик) саноати учун қўлланилган нотўқима мато тайёрлаш. Евразийский журнал академических исследований, (2023). 3(12 Part 2), 211-216.

17. Урозов, М. К., О. А. Тошбеков, and К. Рахимова. "Жунни қалинлигини синовдан ўтказиш усуллари." *Евразийский журнал академических исследований* 2.13 (2022): 784-788.